



“ABADIYAT QONUNI” ASARIDAGI OBRAZLAR TIMSOLI

Sobirova Durdona

Ajiniyaz nomidagi nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1- bosqich talabasi

<https://www.doi.org/10.37547/ejar-v03-i02-p4-144>

ARTICLE INFO

Received: 14th February 2023

Accepted: 23th February 2023

Online: 24th February 2023

KEY WORDS

Nodar Dumbadze, ijodi, asar mohiyati, abadiyat qonuni, obrazlar, ijobiy, salbiy, xarakter, bosh qahramon, Bachana Ramishvili.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Nodar Dumbadzening “Abadiyat qonuni” asaridagi bosh va yordamchi obrazlar haqida fikr yuritiladi. Bundan tashqari salbiy va ijobiy obrazlarga ham to'xtalib o'tamiz.

Mashhur Gruzin yozuvchisi Vladimirovich Dumbadze 1928-yil 14-iyulida Gruziya poytaxti Tibilisi shaxrida tug'ilgan. Adibning aksariyat asarlaridagi voqea -hodisalar, insonlar taqdiri o'zining o'tkir drammatizmi bilan birga samimiy yumori bilan ham o'quvchilar yodida uzoq saqlanib qoladi. Qadim an'analarga sodiqlik, har qanday qiyin ahvolda ham Vatanni tashlab ketmaslik yoshi ulug'larni e'zozlash singari insoniy ko'nikmalarni har ikki xalqqa birdek xosdir. Yozuvchining ilk hikoyalar to'plami “Qishloq bolalari” deb nomlangan va 1958-yilda nashrga chiqqan. Bundan tashqari u doston va romanlar ham yozadi. Bularga misol qilib, keltirishimiz mumkin “Quyoshni ko'ryapman”, “Quyosh kechasi”, “Oq bayroqlar”, va shu bilan birga “Abadiyat qonuni” romani ham shular jumlasidan. Zamonaviy mavzudagi “Oq bayroqlar” “Quyosh kechasi” asarlarida insonlarning bir-biriga munosabati, odamiylik, oqibat singari fazilatlar ulug'langan. “Quyoshni Ko'ryapman”, “Men, buvim, Iliko va Illarion” asarlarida ikkinchi jahon urushi yillaridagi gruzin qishloqlaridagi og'ir va mashaqqatli hayot manzaralari, bir-biriga o'xshamaydigan taqdir egalari obrazi qalamga olingan. Endi “Abadiyat qonuni” romaniga to'xtaladigan bo'lsak, bu roman nafaqat Gruziyaning o'zida, balki ko'plab boshqa yurtlarda ham izlab topib o'qiladigan asarlar qatoridan joy olgan. “abadiyat qonuni” asari asosida o'zbek sanatkorlari tomonidan yaratilgan ko'p qismli videofilm namoyish etilgach esa, adib ijodiga qiziqish bizning yurtimizda yanada kuchaygan. Bur romanda insonning hayotdagi o'rni, undan tashqari talab etiladigan fidoiylik, halollik, vijdonlilik, adolatparvarlik xususiyatlari to'g'risida keng mushohada yuritilgan.

Asardagi bosh obraz Bachana Ramishvili hisoblanadi. Asar boshlanishi avval jumboqroq boshlansa kitobxon uni o'qish jarayonida voqealar syujetini o'zi tushinib oladi. Yani asarni to'liq tugatmaguncha uning ma'no mazmunini tushinib olish qiyin. Asar boshi bosh qahramonning validayi muhtaramasi ya'ni onasining vafot etishi bilan boshlanadi. Bu asarni o'qish jarayonida jamiyatdagi har xil insonlar taqdiri qalamga olinadi misol tariqasida bir



nechtasini keltirib o'tsam, poraxo'rlik, tanish bilishlilik, insofsizlik, odamlarning bir biriga mehrsizligi yaqqol ko'rinib turadi. Bachana yosh paytida onasi vafot etadi keyin u bobosi qo'lida tarbiyalanadi. Qahramonning hayotining ko'p qismi kasalxonada kechadi ya'ni Bachana Ramishvili 15 yoshida sil kasaliga chalinib qoladi. U bu kasalligini bobosidan yashiradi va dori topish uchun aptekaga boradi. Bu aptekachi bobosining tanishi edi boladan dori kimgaligini so'raganda qahramon bobomga deya javob beradi. Dori sotadigan amaki Glaxuna edi u bunga ishonmay Bachanadan rostini aytishini talab qiladi va uni davolash uchun olib ketadi. Asar Bachananing kasalxonada yotish jarayonini qamrab oladi. Bachana yozuvchi bo'lib yetishadi u ko'plab gazeta va jurnallarda ish yuritadi. ish faoliyatidagi ko'rgan kechirgan voqealar va yomonliklarini kasalxonada ikki do'stiga sozlab beradi. Bachana Ramishvili tabiatan juda muloyim soddadil, samimiy inson ediki u hayotida hech kimga yomonlik qilmagan. Jamiyatdagi o'zining o'rni qanday bolishi unga malum edi. Ish faoliyati jarayonida u ko'plab yetuk shaxslar bilan tanishadi va ish olib boradi. Bachana kasallikning davosi toza havo tog' havosi deb eshitgach, Glaxuna amakisining chorvasini boqish uchun unga yordam beradi, Glaxuna ham unga echki sutini berib davolash kerakligini aytib unga eshki suti topib beradi. Keyinchalik kasali tuzalgach u yozuvchilik kasbida ko'p yil ish olib boradi. Qahramon miyatdagi odamlarning yomonligidan jaxli chiqar edi. Chunki u yozuvchi edi, uning oldiga iltimos qilib keladigan odamlar son mingta. Kasalxonada yotgan yili uning oldiga bir odam keldi Bachana uni tanimas edi lekin u odam Bachanani tanishini aytib kimgadir xat yozib qo'l qo'yib berishini iltimos qiladi va pul taklif qiladi, Bachana unga iltimosini bajara olmasligini aytib uyiga qaytarib yuboradi. Bu yerda o'ylash kerakki bugungi kunda ham jamiyatda bunday insonlar yo'q deya olmaymiz, albatta, bor. Asardagi Bachanani ijobiy qahramon deb olishimiz uchun dalillar ham ancha yetarli darajada. Uning oliyjanoblighi hammaga qo'lidan kelganicha yordam berishi va hokazo. Asarni o'qish jarayonida bir necha salbiy obrazlarga ham duch kelishhimiz mumkin. Asarning o'zi 20 bo'limga ajratilgan. Masalan 17 bo'limdagi tuladzeni oladigan bo'lsak ana o'sha odam Bachanaga pora taklif qiladi biz shuni salbiy obraz deb ta'riflashimiz mumkin.

Xulosa o'rnida aytib o'tish joizki, butun asar mazmuni Bachana Ramishvili hayoti bilan chambarchas bog'liq. Bundan tashqari jamiyatdagi insonlarning noto'g'ri ishlari va boshqa masalalar yoritib beriladi. Asarni o'qishda xuddi bugungi kunda dolzarb mavzuga aylangan muammolar haqida batafsil aytib o'tilgan. O'ylab qarasa, hayotimizni o'zi bir qonun xuddiki hayotdagi voqealar qozog'ga zarhal xarflar bilan terib chiqilgan xolos. Bundan tashqari asarda bosh qahramonning har qanday qiyinchiliklarga ko'nikishi va ularni sabrlilik bilan yengib o'tishi bugungi kundagi yoshlar uchun albatta ibrat bo'la oladi. Masalan qahramon kasal bolishiga qaramasdan dorisi uchun o'zi ishlab pul topishni xohlaydi. Kasallikni yengib o'tish uchun tog' havosidan nafas olishni istaydi. Uning bu sabr qanoatliligi hammasidan ham e'tiborlisi hisoblanadi. Shu o'rinda aytib o'tish mumkinki, bosh qahramon onasidan erta yetim qoladi. Onasidan ajralgandan keyin bu kasallikga chalinganini sezib boshlaydi bunday vaqtda qanday qiyin bo'lishini romanni o'qiyotgan kitobxon albatta o'zi ham shu holatga tushgandek his qilsa kerak deb o'ylayman. Faqatgina bu asarni o'qish jarayonida emas balki barcha asarlarni o'qishda kitobxon qahramon holatiga tushadi, ya'ni qahramon yig'lasa yig'laydi kulsa kuladi, o'qiyotgan asarining olamiga albatta tushadi voqealar xuddi o'zining hayotida sodir bo'layotgandek go'yo. Asarda bosh qahramon ijobiy holatda ko'z oldimizda namoyon



bo'ldi. Shu o'rinda gruzin xalq maqolini keltirib o'tsak, "Ezgu ishdan o'zga hamma narsa o'tkinchidir" bosh qahramon ham aynan shu ezgu ishlarni qilishga, odamlarga ko'proq yordam berishga intiladi. Shu bois u ko'p vaqt o'z ish faoliyatini davom ettiradi, lekin keyinchalik yana kasali xuruj qilib kasalxonaga tushadi kop vaqt davomida kasalxonada davolanadi. U yerga uni yoqlab kopchilik do'stlari keladi bundan tashqari yordam sorab kelaganlar ham bo'ldi. Asardagi bosh qahramonning xislatlari juda ham tarbiyaviy ahamiyatga ega. Yozuvchining nafaqat bu asari balki boshqa asarlari ham tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ularni o'qish jarayonida kitobxon o'ziga kerakli bo'lgan malumotlarini oladi. Asarda asosan jamiyatdagi hayot tasvirlanadi desak mubolag'a bo'lmaydi. To'g'ri xulosa aytamizki hozirda jamiyatda inson o'rne va faoliyati juda muhim masala ekanligiga e'tibor qaratish lozim. Bosh qahramonimiz Bachana Ramishvili jamiyatdagi o'rnini topgan insonlardan biri desak adashmaymiz. Uning hayotda kechirgan yaxshi va yomon voqealarini asarni o'qish davomida tushinib olish mumkin. Asar bosh obrazi va yordamchi obrazlari haqida aytdik. Yordamchi obrazlar asosan Glaxuna va Tuladze hisoblanadi. Ular asarning boshida uchratishimiz mumkin. Bundan tashqari ularning asardagi asosiy roli bittasi salbiy bittasi ijobiy obrazdir. Glaxuna Bachanaga yordam bergan bo'lsa Tuladze unga pora taklif qilmoqchi bo'lishadi. Asardagi shu bo'limlar diqqatni tortmay qolmaydi, albatta.

References:

1. "Adabiyot" Dildora Xudayberganova, Oybek Xusinov
2. "Abadiyat qonuni" Toshkent "O'zbekiston" 2019 nashr